

**ISSN:3060-4567 Modern education and development**  
**NASILDOR TOVUQ ZOTLARI , UNING TARKIBI, HOLATI VA**  
**TAFSIFI**

**A.Yangiboyev**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Zoojnjeriya va ipakchilik  
kafedrasи dotsenti*

**Anotatsiya:** Bugungi kunda parrandachilik tarmog‘ida bir qator rekordchi tovuq zotlari va krosslari yaratilgan bo‘lib xususan tuxum va go‘sht yo‘nalishidagi tovuqlar bu borada yetakchi hisoblanadi. Parrandalarning boshqa turlarida ham so‘ngi yillarda juda tez yetiluvchan va mahsulorligi yuqori bo‘lgan zotlar yaratilmoqda biz ushbu maqolamizda huddi shunday yo‘nalishlardagi bir qator tovuq zotlari haqida ma’lumotlar keltiramiz.

**Kalit so‘zlar:** Hay-Line, Plimutrok, Loman Brown, Ross-308, Cobb-500, Rodonit, loman LSL, Tetra SL.

**Аннотация:** Сегодня в птицеводстве создан ряд рекордных пород и помесей кур, особенно лидерами в этом отношении являются куры яичного и мясного направления. В других видах птицеводства в последние годы созданы очень скороспелые и высокопродуктивные породы. В данной статье мы представляем информацию о ряде пород кур того же направления.

**Ключевые слова:** Хай-Лайн, Плимутрок, Ломан Браун, Росс-308, Кобб-500, Родонит, Ломан ЛСЛ, Тетра СЛ.

**Annotation:** Today, a number of record-breaking chicken breeds and crossbreeds have been created in the poultry industry, especially chickens for egg and meat are the leaders in this regard. In other types of poultry, very fast maturing and high-productivity breeds have been created in recent years. In this article, we present information about a number of chicken breeds in the same direction.

### **Asosiy qism**

#### **To'shamalarni har-xil mikroorganizimlar bilan ifloslanishi.**

Barqaror uzoq muddatli oziq-ovqat havfsizligiga erishish O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlariga o'zaro bog'liq bo'lgan muhim vazifasi hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta'minlashda parrandachilikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega

Parrandachilikni "Yetti xazinaning biri" deb beziz aytishmagan. Chunki biroz diqqat-e'tibor, mehr bilan parrandani parvarishlashga kirishsangiz, ko'p fursat o'tmay tuxum va parranda go'shtidek tansiq taomlar xom ashvosiga ega bo'lasiz. Binobarin, maslahatimiz uy sharoitida, yoki keng miqyosda qanday qilib parrandalarni parvarishlash, ko'paytirish va ulardan samarali hamda foydali oziq-ovqat maxsulotlari olish to'g'risidadir.

Tuxum yo'nalishidagi parrandalarning xozirgi kunda eng zamonaviy yuqori mahsuldor krosslaridan Lomann (Germaniya), Xayseks, Bovans, Dekalb (Gollandiya), Xaylyn (AQSH) va Rodonit, Sheyver (Rossiya) zotlari ma'lum. Tovuqlar bir yilda uy sharoitida 300 donagacha, sanoat parrandachiligida 350 donagacha tuxum berishi mumkin. Bir dona tovuq tuxumining og'irligi o'rtacha 49—65 grammga boradi.

#### **Tuxum yo'nalishidagi tovuq zotlari**

Mazkur bo'lim bugungi kunda eng ko'p tarqalgan hamda sanoat va xonaki usulda parvarishlanayotgan tuxum yo'nalishidagi tovuq zotlari haqida.



### **Loman Braun**

Loman Braun tuxum yo‘nalishidagi mashhur tovuq zotidan. Uning klassik va vayt turlari mavjud. Jahon bozorida sarmahsulliligi, tuxumning rangi va tashqi qobig‘ining qattiqligi bilan ajralib turadi. 140-150 kunlik yoshda makiyonchalarning 50% tuxum bera boshlaydi. Eng yuqori mahsuldorligi 92-94%ni tashkil etadi. Bir yilda 302-304 (ba’zan 315-320) ta tuxum beradi, tuxumining vazni 63,5-64,5 g. Vazni 20 haftada 1,6-1,7 kg, tuxum berish davrining oxirida 1,9-2,1 kg bo‘ladi.

**Loman Braunni klassik** ixcham ko‘rinishdagi, keng ko‘krakli va kuchli sariq oyoqlarga ega. Tanasi yaltiroq va zich tortilib turadi. Loman Braun katta vaznli bo‘lmagan klassik zot. Katta xo‘rozlarning og‘irligi maksimal 3 kilogramm, tovuqlari esa 2 kilogramm atrofida. Tovuqlarning rangi jigar rang, dumlarning uchida oq mayda patlari bor, xo‘rozlari esa quyuq qora dog‘li jigar rangda bo‘ladi.

**Loman Braun vayt** ko‘rkamligi jihatdan Loman Braun klassikka o‘xshaydi. Ularning asosiy farqi patlarining va tuxum qobig‘ining rangidadir. Loman Braun xo‘rozlari ham oq rangda bo‘ladi.

### **Loman LSL**

Loman LSL tuxum yo‘nalishidagi tovuq zotidir. Uning klassik va vayt turlari mavjud. Ularning orasidagi farq: vayt tuxum turiga nisbatan ko‘proq, ammo kichikroq tuxum beradi. Loman Braundan uncha farq qilmaydi. Patlari va tuxumining rangi oq. Parvarishlash tannarxi arzon. Kataklarda boqishga

moslashgan bo'lsa-da, uni erda va qattiq to'shamali polda ham boqish mumkin.

Bir yil davomida 341-346 ta tuxum beradi, tuxumining vazni 61,5-63 g.

### **Leggorn zoti**

Leggorn tovuqlari serpusht zotdir. Bu zot AQSH va Italiyadan olib kelingan. Mahalliy engil vaznli tovuqlarni (pati oq, qizg'ish va qora tusda) tanlash va naslchilik ishlarining boshqa usullari qo'llanilishi natijasida vujudga kelgan. Leggorn zot tovuqlari dunyoning turli joylarda ko'p tarqalgan. Bu zot tovuqlarining mahsuldarligi quyidagi ko'rsatkichlarga ega: serpushtliliqi yil mobaynida 200-240 dona tuxum, tuxumining o'rtacha vazni 56-62 g. Etuk tovuqlar vazni 1,8 kg, xo'rozlarining vazni 2,5 kg.

### **Tetra SL**

Eng mashhur krosslardan biri. Bitta tovuq 52 hafta davomida 301-309 dona tuxum beradi. Tovuqlar 17-19 haftaligida 90% mahsuldarlikni namoyish etadi. Biroq bu erda oziqlanish harajatlari ancha yuqori. Bitta jo'jani 18 hafta boqish uchun 6,5-6,8 kg omuxta em talab qilinadi. Hayotning 18 haftadan 72 haftalik davr mobaynida 43-45 kg omuxta em sarflanadi. Bir tovuq kuniga kamida 115-125 g dan ko'p omuxta em sarflanadi. Tanasi to'rburchaksimon, boshi kichkina va dum patlari kaltaroq, qanotlari o'rtacha shakllangan bo'lib, tanaga yopishib turadi. Bir tuxum shakllanishi uchun 145-155 gramm ozuqa sarflanadi. Tuxum qobig'i qora jigar rang, vazni 63-65 g ga teng.

### **Xayn line**

Ushbu zot erta yetilishi va boqishda oddiyligi bilan mashhur hisoblanadi. Ushbu zotlarning ikki turi mavjud. Xayn layn oq va Xayn layn jigar rang. Bu krosslar amerikaliklar tomonidan yaratilgan bo'lib, erta tuxum qo'yishni boshlaydi. 29 haftada maksimal 91% mahsuldarlik ko'rsatkichlarini namoyon etadi. Hayotning 18-70 hafta mobaynida o'rtacha 273 ta tuxum ishlab chiqaradi. Tovuqlarning o'rtacha tirik vazni 1,19 kg, xo'rozlariniki esa 1,65 kg ga teng. 18 haftalik yoshigacha tovuqlar 6 kg ozuqa talab qiladi.

Xayn layn oq va xayn layn jigar rang tovuqlarining ba'zi bir farqlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

<b>Krossga tasnif</b>	<b>Xayn-layn (jigar rang)</b>	<b>Xayn-layn (oq)</b>
Tuxum berish boshlanishi (kunlar)	153	144
Yosh tovuqning o‘rtacha vazni (kilogramm)	1,55	1,55
Katta tovuqlarning maksimal vazni (kilogramm)	2,25	1,74
Ozuqa sarfi (sutkada, gramm)	110-115	102
Bir yilda tuxum mahsuldorligi	241-339	247-350
Tovuqlarining yashovchanligi (foizda)	96-98	93-96
Tuxumlarining rangi	Jigar rang	Oq


### **Go‘sht yo‘nalishidagi tovuq zotlari**

Go‘sht yo‘nalishida tovuq zotlarining boshqa zot vakillaridan asosiy farqi quyidagilar: yirikligi, baquvvatligi, tanasi gorizontal holda joylashganligi, yuvvoshligi, oyoqlarining kalta va qlinligi, patlarining siyrakligi bilan ajralib turadi. Go‘sht yo‘nalishidagi tovuqlarning tuxumdorligi o‘rtacha, lekin tuxum bostirishda ularga teng keladigani yo‘q. Eng ko‘p tarqalgan go‘sht yo‘nalishidagi tovuqlarga kornish va oq plimutrok zotlari kiradi, ular broyler jo‘jalarini yaratishda qatnashgan zotlardir. Kam foydalilaniladigan go‘shtdor tovuqlarga koxinxinlar, bramalar, langshanar, faverollar, dorkinglar va gudanlar kiradi. Oxirgi 50 yillar davomida go‘sht yo‘nalishidagi zotlarni urchitish ishlari natijasida nihoyatda tez o‘sadigan va tana vaznining juda og‘irligi bilan ajralib turadigan go‘shtdor parranda krosslari yaratildi. Bu jarayon aholini yuqori ozuqaviy go‘sht mahsuloti bilan ta’minlashda o‘ziga xos revolyusion o‘zgarishlarga sababchi bo‘ladi, chunki jamiyatning turli qatlamlariga xamyonbop parranda go‘shtini iste’mol qilish imkonini mavjud bo‘ldi.

### **Broyler tovuq krosslari**

Broyler jo‘jalarini olish uchun parrandachilik fabrikalarida, asosan ikki zot qatnashadi: otasi – Oq kornish go‘sht yo‘nalishidagi zot, onasi – Oq Plimutrok go‘sht-tuxum yo‘nalishidagi zot. Yuqoridagi zotlarni chatishtirishdan olingan gibridlar, yana go‘sht yo‘nalishidagi Oq Kornish zoti bilan chatishtiriladi va

broyler jo‘jalari olinadi. Bundan tashqari, broyler jo‘jalari olish uchun gibriddlar Rod-aylend, Kuchinskiy, Nyu-Geymshir va boshqa go‘shtdor zotlar bilan ham chatishtirish yo‘li bilan olinadi. Shunday qilib, Broyler zot emas, balki gibriddir. Gibridlar irsiy ko‘rsatkichlarini bir tekisda ushlab turolmaydi va o‘z nasliga o‘tkaza olmaydi. Broyler tovuqlari yaratilishida go‘shtdor zotlar qatnashgani uchun ular kam tuxum qo‘yadilar, bu tuxumlardan chiqqan jo‘jalar ota-onalariga nisbatan mahsuldorlikda (o‘sishda, semirishda) ancha past bo‘ladilar, shuning uchun broylerlardan ota-onalari galasi yaratib, jo‘ja ochtirish mantiqqa javob bermaydi.



Broylerning Smena, Gibro-6, Broyler-61, Broyler-M, KOB-500, ROS-308, ROS-708 kabi bir nechta krosslari mavjud bo‘lib, hozirgi kunda keng parvarishlanib kelinmoqda.

### **Kornish zoti**

Kornish zoti yoki Hindiston urushqoq xo‘roz zoti, yana bir nomi Kornuell tovuqlari deb nomланади. 1840 yillar Kornuell grafligida Qizil Azil zoti bilan Ingliz urushqoq xo‘roz zoti chatishtirilib, duragaylar so‘ngra Malay zoti bilan chatishtirilib, yangi zot yaratildi. Bu zot go‘shtdor krosslarni yaratishda sanoat parrandachiligida katta shuhrat qozondi. Bu zot faqat go‘sht yo‘nalishida boqiladi, tuxumdorligi past bo‘lgani uchun XX asrning o‘rtalarigacha bu zot keng tarqalmagan ham. Zotning hozirgi kundagi tuxumdorligi 100-130 donani tashkil etadi. Tuxumlari yirik 60 g dan yuqori, tuxumning rang oq-jigarrang. Zotning ba’zi yo‘nalishlari jigar rangda bo‘lib, tuxumdorligi 70-160 dona, tuxumning rangi jigarrangdan to‘q jigarranggacha bo‘ladi.

### **Plimutrok zoti**

Plimutrok zoti go'sht yo'nalishidagi zot bo'lib, AQSHning Plimutrok shtatida XIX asrning ikkinchi yarmida murakkab chatishtirish yo'li bilan yaratilgan. CHatishtiruvda dominikan, langshan, brama, koxinxin va yavan zotlari qatnashgan. Plimutrokning sakkiz turi mavjud (kulrang, qora, dala rang, kaklik rang va boshqa), lekin sanoat parrandachiligidagi faqat oq rangidan foydalaniladi. Bu zot yashovchanligi, ovqat tanlamasligi, tanasining mustahkamligi, bamaylixotirligi bilan ajralib turadi. Jo'jalari tez o'sadi, ammo sekin patlanadi. Oq plimutrok tovuqlari kornish zoti xo'rozlari bilan chatishtirilganda, broyler jo'jalari ochiladi.

### **Plimutrok zotiga qisqacha tavsif**

Xo'rozlarning vazni	To'rt kilogramm atrofida
Tovuqlarning vazni	Uch kilogramm atrofida
Tuxum berishi	Bir yilda 160-170 ta
Tuxumning og'irligi	60 g
Jo'janing rentabelligi	80% atrofida
Jo'jalarning yashovchanligi	90%
Kasalliklarga chidamliligi	Yuqori darajada

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.E.Yangiboyev, N.E.Sattorov, I.R.Xolbo'tayev "Broyler jo'jalarining biokimyoiy qon ko'rsatgichlariga tetrabiotik probiotigining ta'siri" Chorvachilik va naslchilik ishi ilmiy amaliy jurnal ISSN-2181 2024 y №4.16-18 bet
2. A.E.Yangiboyev, A.M.Xoljigitov, A.N.Qo'chqorov, I.R.Xolbo'tayev Qishloq xo'jalik parrandalari seleksiyasi. Darslik 2023 y
3. O'zbekiston Respublikasi Parrandasanoat uyushmasi. Broyler jo'jalarini yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent 2015 y
4. A.E.Yangiboyev, N.E.Sattorov, I.R.Xolbo'tayev "Effect of tetrabiotic probiotic on quantitative and qualitative indicators of broiler chicken meat" Neo

